

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI  
RESPUBLIKA O‘RTA TIBBIYOT VA FARMASEVTIKA XODIMLARI  
MALAKASINI OSHIRISH VA ULARNI IXTISOSLASHTIRISH MARKAZI**

**«KELISHILDI»**

Respublika o‘rta tibbiyot va  
farmasevtika xodimlari  
malakasini oshirish va ularni  
ixtisoslashtirish markazi  
hududiy xay‘at raisi

M.T. Xakimova



03 2025 y.

**« TASDIQLAYMAN»**

Respublika o‘rta tibbiyot va  
farmasevtika xodimlari  
malakasini oshirish va ularni  
ixtisoslashtirish markazi  
direktori

L.X. Musadjanova



03 2025 y.

**Bilimlar sohasi: Sog‘liqni saqlash**

**“GEMATOLOGIYA VA TRANSFUZIOLOGIYADA HAMSHIRALIK  
ISHI”**

(sikli bo‘yicha malaka oshirish guruhlariga uchun)

**O‘QUV DASTURI**

**(144-kredit )**

**Toshkent – 2025 yil**



## 1. Kirish

O‘zbekiston Respublikasida o‘rta tibbiyot xodimlarini tayyorlash, malakasini oshirish, tibbiyot muassasalarida o‘rta tibbiyot xodimlari ishini xalqaro andozalarga mos tarzda tashkil etish borasida zamonaviy tizim yaratilgan.

Mazkur o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi “Tibbiyot va farmasevtika ta’limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ- 4310-son va 2020 yil 7 apreldagi “Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 4666-sonli qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘likni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli “Tibbiy-sanitariya va farmasevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish buyicha me’yoriy hujjatlarni yanada takomillashtirish to‘g‘risidagi”buyrug‘i, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2024 yil 28 oktabr 333-sonli “O‘rta tibbiyot va farmasevtika xodimlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlashga qo‘yiladigan Davlat talablari” ijrosini ta’minlash maqsadida ishlab chiqilgan.

Milliy klinik protokollar bo‘yicha tavsiyalardan foydalanilgan. O‘quv dasturi modul tizimi asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, o‘quv fanning mazmuni, uni o‘zlashtirish shakli va usullari mujassamlashtirilgan. Dastur mazmunida nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallash alohida e’tiborga olingan. O‘quv dasturi “Gematologiya va transfuziologiyada hamshiralik ishi” yo‘nalishining o‘quv rejasi asosida tayyorlangan bo‘lib, o‘rta tibbiyot xodimlarini 144 kredit malaka oshirishlari uchun mo‘ljallangan. Dasturda fanlar modullarga ajratilgan bo‘lib, kasbiy rivojlanish moduli fanlar hamda, mutaxassislik fanlar bo‘yicha ta’lim olayotganlarning har tomonlama kasbiy, ma’naviy va siyosiy dunyoqarashlarini kengaytirishga qaratilgan yangiliklar, shuningdek, sog‘liqni saqlash tizimidagi islohatlar, tibbiyot sohasining ilm – fani va amaliyotining rivojlanishi tendensiyalari va yutuqlari, yangi texnika va texnologiyalari to‘g‘risida ma’lumotlar kiritilib, tibbiy ta’limda uzluksizligi va uzviyligini, fanlar va bo‘limlarni ketma-ketligini ta’minlangan holda tinglovchilarni mustaqil ishlashga va fikrlashga qaratilgan o‘quv materiallarini qamrab olgan.

### 1.1. Maqsad:

Gematologiya va transfuziologiya bo‘limi hamshirasining mavjud kompetensiyalarini takomillashtirish va kasbiy faoliyat uchun zarur yangi bilim va ko‘nikmalarini egallash va kasbiy darajasini oshirish, o‘rta tibbiyot xodimlarini qon kasalliklari bilan kasallangan bemorlarni parvarishlash vaqtida har tomonlama yetuk, yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlariga erishish, ular faoliyatini yanada takomillashtirish, malakali tibbiy yordam ko‘rsatish samaradorligini ko‘tarish, xalqaro kasalliklar tasnifiga mos keladigan kasalliklarning nozologik shakllari, ambulator va statsionar sharoitida kasalliklarni tashxislash va bemor hayotiga xavf soluvchi xolatlarda shoshilinch

yordam ko'rsatish, profilaktik tadbirlar majmuasini amalga oshirish bo'yicha yangi nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallashga qaratilgan.

### **1.2. Vazifalar:**

- O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining davolash profilaktika muassasalarida amalda bo'lgan buyruqlarini ish faoliyatida qo'llay bilish.
- aholi salomatligini qayta tiklash va yanada mustahkamlash, tibbiy yordamga muxtoj bemorlarni zamonaviy apparaturalarda tekshirishga tayyorlash, tibbiy yordam ko'rsatish chora tadbirlari, hozirgi kunda qo'llanilayotgan yangi tibbiy texnologiyalar to'g'risida ma'lumot berish;
- aholi o'rtasida tibbiy madaniyatni oshirish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, profilaktik chora tadbirlarni amalga oshirish orqali ko'p tarqalgan kasalliklarni oldini olishga o'rgatish;
- etika va deontologiyaning zamonaviy jixatlarini shakllantirish;
- zamonaviy klinik protokollar va standartlar bilan tanishtirib, ular asosida ishlash ko'nikmalarini yangilash va mukammallashtirish;
- gematologiya va transfuziologiya statsionarlarida shifoxona ichi infeksiyalari yuzaga kelishi va tarqalishining oldini olishni ta'minlaydigan tashkiliy, davolash-profilaktik, sanitariya-gigiyenik, epidemiyaga qarshi va dezinfeksiya qilish tadbirlarini olib borish.
- tibbiyot sohasidagi yangiliklar, zamonaviy apparaturalar yordamida bemorlarni tekshirishga tayyorlash va parvarishlash, salomatligini qayta tiklash va yanada mustahkamlashni olib borish.
- bemorlar hayotiga xavf soluvchi patologik holatlar va ularga olib keluvchi xavf omillarida shoshilinch tez tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni mukammallashtirish.
- favqulotda holatlarda bemor ahvolini baholash, asoratlarning oldini olish chora-tadbirlarini qo'llay olish.

### **1.3. Ta'lim oluvchilar toifasi (kontingenti):**

O'quv dastur gematologiya bo'limi hamshiralari malakaviy tavsifnomasi va lavozim yo'riqnomalariga muvofiq, ya'ni mutaxassisligini *tasdiqlovchi hujjati* bo'lgan hamshiralar uchun mo'ljallangan.

### **1.4. O'quv dasturni o'zlashtira olish uchun zarur bo'lgan tinglovchi kompetensiyasi:**

- Tibbiy etika va deontologiyani amalda qo'llay oladigan, notiqlik san'atining asoslarini tushungan yetuk mutaxassis bo'lishi;
- hamshiraning huquqiy meyorlarini, bemor huquqlari, roziligi, rad etishi, bolalarning yoshiga nisbatan hususiyatlarini bilishi;
- tibbiyot psixologiyasi va shaxslararo muloqot ko'nikmalarini amalga oshirish;
- gematologiya va transfuziologiya yo'nalishi hamshirasining kasbiy tajriba, malaka va mahoratni takomillashtirish yo'lida aniq maqsad va puxta o'ylangan vazifalar asosida amaliy harakatlarni tashkil etish;

- kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni egallash va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olish.
- mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borish, yangi axborotlarni o'rganish, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilish.
- kasbiy faoliyatda subyektlar bilan muloqotga kirisha olish, sog'lom psixologik muhitni yarata olish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o'z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish.
- kasbiy o'sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.
- o'z kasbiy salohiyati doirasida sanitar oqartuv, sanitar-gigiyenik, profilaktik, reabilitatsion, diagnostik va reanimatsion tadbirlarni, vrach ko'rsatmalarini amalga oshirish;  
shoshilinch holatlarda shifokorgacha tez tibbiy yordam choralarni amalga oshirish;

**1.5. Dasturning dolzarbligi:** O'quv dasturining dolzarbligi amaliy tibbiy yordamning real ehtiyojlaridan kelib chiqib, amaldagi standart va bayonnomalar, dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillarida kasalliklar dignostikasi, zamonaviy davolash va profilaktika choralarni qo'llash, gematologiya bo'limi hamshirasini aholiga hozirgi davr talablariga mos ravishda zamonaviy, malakali, sifatli tibbiy xizmat ko'rsatishni ta'minlaydi. O'quv dasturi amaliyotga asoslangan va muammolarga yo'naltirilgan yondoshuv asosida amaliy tibbiy yordamning zamonaviy ehtiyojlaridan kelib chiqib, o'quv materiallari va jarayonlar O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash tizimining va mutaxassislikning o'ziga xos kasbiy ehtiyojlariga qaratilgan.

**1.6. Dastur hajmi:** 1 oy 144 soat (kuniga 6 soat, haftasiga 36 kredit).

**1.7. O'qish shakli:**

- kunduzgi
- on/offline, masofaviy /an'anaviy o'qish ishdan ajralgan/ ajralmagan holda

**1.8. Mashg'ulotlarni o'tish tartibi:** Mashg'ulotlar O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi "Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish to'g'risidagi" 160-son buyrug'i va markazning ichki tartib-qoidalari asosida rejalashtiriladi va amalga oshiriladi. Mashg'ulotlar 9<sup>00</sup> da boshlanib, 13<sup>40</sup> da tamom bo'ladi. Tushlik - 30 daqiqa.

**1.9. Malaka oshirishdan so'ng:** o'quv kursni to'liq o'zlashtirgan va yakuniy attestatsiyani topshirgan tinglovchilarga "Gematologiya va transfuziologiyada hamshiralik ishi" bo'yicha umumiy malaka oshirganligi haqida Davlat talablari namunasidagi sertifikat taqdim etiladi.

## **2. REJALASHTIRILAYOTGAN TA'LIM NATIJALARI**

**2.1. Rejalashtirilayotgan ta'lim (natijalari)dan so'ng tinglovchi kompetensiyasi:**

- o'rta tibbiyot xodimining fikrlash, tahlil va sintez qilish, jamoa bilan

ishlash va uni boshqarish, intizomlilik, boshlagan ishini mantiqiy yakuniga yetkazishga tayyorligini rivojlantiradi;

- o‘z-o‘zini baholash, tanqidiy tahlil qilish va to‘g‘ri qarorlarni qabul qilish, aholi sog‘lig‘ini saqlash va mustahkamlash doirasida va ular orasida tibbiy madaniyat, sog‘lom turmush tarzi, kasallik rivojlanishining oldini olish borasida profilaktik sanitariya targ‘ibot tadbirlarni olib borish, sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini shakllantirishda innovatsion texnologiyalarni keng tadbiq etish;
- kasalliklarini aniqlashda qo‘llaniladigan zamonaviy tibbiy tekshirish usullarini o‘zlashtirish;
- aholi o‘rtasida to‘g‘ri, ratsional ovqatlanish, zararli odatlarga qarshi kurashish, sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash, o‘sib kelayotgan avlodni sog‘lomlashtirish tadbirlarini yangilash;
- aholi o‘rtasida tibbiy madaniyatni oshirish, ko‘p tarqalgan kasalliklarni oldini olish, dispanser kuzatuvini olib borishni tashkillashtirishni takomillashtirish;
- hamshiralik jarayoni orqali tibbiyot hamshirasi amaliyot standartlarini, hamshiraning kasallik tarixi va hamshiralik tashxisi, shuningdek hamshiralik parvarishini amalga oshirish ko‘nikmasini rivojlantirish;
- tibbiyot sohasidagi yangiliklar, tibbiyotdagi zamonaviy tekshiruv usullari, ularga bemorlarni tayyorlash;
- hayotga havf soluvchi holatlarda bemorlarga tezkor yordam ko‘rsatish chora- tadbirlarini o‘tkazish;
- bemorlarga tashxis qo‘yishda zamonaviy tekshirish usullaridan foydalanish;
- muolajalarga bemorni ruhan va jismonan tayyorlash va parvarishlash;
- hozirgi kunda qo‘llanilayotgan yangi tibbiy texnologiyalar to‘g‘risida boxabar bo‘lish;
- gematologiya bo‘limlarida hamshiralik jarayoni bo‘yicha ko‘nikmalarini yangilash;
- qon guruhlari, rezus faktorni aniqlash usullari va texnikasini takomillashtirish;
- qon va qon yaratish a‘zolari kasalliklari bo‘lgan bemorlarni zamonaviy laborator-instrumental tekshirish usullarini qo‘llashga tayyorlash;
- postgemotransfuzion reaksiyalar va ularning asoratlarida shoshilinch yordam ko‘rsatish va hamshiralik parvarishi ko‘nikmalarini mukammallashtirish;
- gemotransmissiv infeksiyalar va kasalxona ichi infeksiyasini tarqalishini oldini olishda hamshiralik parvarishini olib borish;
- mikroskopik va serologik tekshiruvlar uchun preparatlar tayyorlash;
- donorlarga shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatish va hamshiralik parvarishi;
- gematologiyada kechiktirib bo‘lmaydigan holatlarda hamshiralik parvarishini olib borish ko‘nikmalarini mukammallashtirish;
- favqulotda xolatlarda tez tibbiy yordam ko‘rsatish.

### 3. DASTUR MAZMUNI

#### 3.1. «Gematologiya va transfuziologiyada hamshiralik ishi» kursi o‘quv rejası

№	Modul va mavzular nomi	Auditoriya mashg‘ulot soatlari				Attestatsiya
		Kredit	Nazariy	Amaliy	Seminar	
1.0	<b>Kasbiy rivojlantirish moduli</b>	<b>32</b>	<b>16</b>	<b>16</b>		
1.1	Modul.O‘zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati.	4	4	-		
1.2	Modul. Tibbiyotda raqamli texnologiyalar	6	2	4		
1.3	Modul. Infekcion nazorat.	6	4	2		
1.4	Modul.Sterilizatsiyada zamonaviy usullar va texnika xavfsizligi	6	2	4		
1.5	Modul. Sog‘lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik	10	4	6		
<b>2.0</b>	<b>Mutaxassislik fanlar moduli</b>	<b>104</b>	<b>44</b>	<b>60</b>		
2.1.	Modul: O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni Saqlash Vazirligining gematologiya va transfuziologiya sohasidagi qaror va buyruqlar, me‘yoriy hujjatlar va islohotlar.	6	4	2		
2.2.	Modul: Qon va qon yaratish a‘zolari kasalliklari bo‘lgan bemorlarni zamonaviy laborator-instrumental tekshirish usullari.	6	2	4		
2.3.	Modul: O‘rta tibbiyot xodimlarining gematologiya bo‘limida standart hamshiralik ish jarayoni. Qon guruhlari, rezus faktorni aniqlash usullari va texnikasi.	6	2	4		
2.4.	Modul: Qon xizmatida faoliyat olib boruvchi o‘rta tibbiyot xodimlarini donorlar bilan ishlashdagi funksional majburiyatlari va vazifalar.	12	4	8		
2.5.	Modul: Qon va uning tarkibiy qismlarini quyish. Qon preparatlarini tayyorlash prinsiplari.	18	10	8		
2.6	Modul: Postgemotransfuzion reaksiyalar va asoratlarini oldini olish, hamshiralik parvarishini olib borish.	18	6	12		

2.7	Modul: Qon yaratish tizimi o'sma kasalliklari. Gematologiyada klinik sindromlar va bemorlarga hamshiralik parvarishi.	12	4	8		
2.8.	Modul: Gemotransmissiv infeksiyalar. Qon xizmati muassasalarida kasalxona ichi infeksiyasini tarqalishini oldini olishda hamshiralik parvarishini olib borish.	14	8	6		
2.9.	Modul: Qon tarkibiy qisimlarini quyishda immunoserologik tekshiruvlar.	6	2	4		
2.10.	Modul: Favqulodda vaziyatlar va hayot uchun xavfli holatlarda birinchi yordam ko'rsatish.	6	2	4		
3.0.	<b>Tanlov fanlar moduli</b>	<b>4</b>	<b>-</b>		<b>4</b>	
4.0	<b>Attestatsiya (integral sinov)</b>	<b>4</b>				<b>4</b>
	<b>Jami</b>	<b>144</b>	<b>60</b>	<b>76</b>	<b>4</b>	<b>4</b>

**“ Gematologiya va transfuziologiyada hamshiralik ishi ” kursi o‘quv modullarining mazmuni**

**1.1.Modul.O‘zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati.**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlis Qonunchilik palatasining yaqin va istiqbolga mo‘ljallangan Harakatlar dasturi muhokamasiga bag‘ishlangan yig‘ilishidagi nutqida belgilab berilgan Sog‘liqni saqlash tizimidagi dasturlarni samarali va to‘liq amalga oshirishdagi asosiy vazifalar. Yangi O‘zbekiston tibbiyoti-yangicha yondashuvlar asosida transformatsiya qilinayotgan tizim. Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida tibbiyotga doir ustuvor yo‘nalishlarning mazmun-mohiyati.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining”Ayollar orasida onkologik kasalliklarni nazorat qilishga doir davlat dasturi to‘g‘risi”dagi hamda “Tibbiy va sog‘lomlashtirish turizmini yanada rivojlantirish chora- tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlarining ahamiyati.Sog‘liqni saqlash tizimini raqamlashtirishdagi ustuvor vazifalar. “Aholi salomatligi-2030” milliy strategiyasining ustuvor yo‘nalishlari,vazifalari va asosiy indikatorlari.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2020-yil 12-noyabrdagi “Sog‘liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlarini Sirdaryo viloyatida joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4890-sonli shuningdek 2024 yil 5-sentabrdagi “Davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlarini joriy etishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 311-sonli Qarorlarining mazmun-mohiyati.

Davlat tibbiy sug‘urtasi-sifatli tibbiy xizmat kafolati.Davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlarini joriy qilish bilan bog‘liq islohotlar. Davlat tibbiy

sugʻurtasining huquqiy asoslari, mexanizmlari va joriy etish bosqichlari haqida. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat tibbiy sugʻurtasiga oid norma haqida.

### **1.2.Modul. Tibbiyotda raqamli texnologiyalar**

Tibbiyot sohasida raqamli texnologiyalaridan foydalanishdagi nazariy va amaliy bilimlarni egallash, Bemor ma'lumotlarini boshqarish, tibbiy statistik ma'lumotlarni to'g'ri tahlil qilish, tahlil qilingan natijalardan kelib chiqqan holda kasallikning oldini olish yoki davolash yo'llarini aniqlash, axborot texnologiyalaridan foydalanish borasida asosiy amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish.

Internet tarmogʻida ishlash, axborot qidirish va ulardan foydalanish, tibbiyot axborot tizimlari xususiyatlari, ma'lumotlar bazasini tashkil etish, mobil tibbiyot ilovalari va axborot xavfsizligi asoslarini, AI asosida diagnostika, chatbotlar va virtual yordamchilardan foydalanishni bilishi kerak. "Tibbiyotda raqamli texnologiyalar" o'quv modulini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

- tibbiyotda raqamli texnologiyalar tushunchalari va tasavvurlarining umumiyligi;
- axborot tushunchalari va turlari. Tibbiyot masalarini yechishda informatikaning o'rni;
- hozirgi zamonda informatikaning o'rni va roli, ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash va uzatish.

### **1.3.Modul. Infekcion nazorat.**

Infekcion nazorat, maqsad va vazifalari. Shifoxona ichi infeksiyasi, kelib chiqish sabablari, profilaktikasi. Sanitariya epedimiologiya sohasida qo'llaniladigan me'yoriy hujjatlar. Davolash profilaktika muassasalarida shifoxona ichi infeksiyasini oldini olish chora tadbirlarini o'tkazishda o'rta tibbiy hodim vazifalari. Karantin va o'ta havfli infeksiyalar haqida tushuncha. Karantin va o'ta havfli infeksiyalar profilaktikasini amalga oshirish chora tadbirlari, himoyalaniish tamoyillari. OIV/OITS haqida umumiy ma'lumot. OIV/OITS tarqalishini oldini olish choralari. Avariya holatlar yuzaga kelganda tibbiy hodim taktikasi. Himoya kiyimlari va ulardan foydalanish tartibi.

### **1.4.Modul. Sterilizatsiyada zamonaviy usullar va texnika xavfsizligi.**

Sterilizatsiya bo'limidagi yuritiladigan me'yoriy hujjatlar. Sterilizatsiyani olib borish xonalaridagi aseptika va antiseptika tadbirlari, ularning talab darajasida bajarilish tartib va qoidalari. Antiseptikaning mexanik, fizikaviy, kimyoviy, biologik turlari. Antiseptik moddalarning guruhlar. Markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan sterilizatsiya bo'limlari turlari. Zamonaviy sterilizatsiya apparatlari va texnika xavfsizligi masalalari. Sterilizatsiyaning sifatini ta'minlovchi tadbirlar, uni tekshirish uchun zarur indikatorlar. Zararsizlantirish bo'limlarida zamonaviy zararsizlantirish apparatlari, ular bilan ishlash. Zararsizlantirish usullari. Zararsizlantirish xonasi texnika xavfsizligi qoidalari. Dezinfeksiya vositalarini tayyorlashda xavfsizlik choralari va dezinfeksiya vositalari bilan zaharlanishda birinchi yordam ko'rsatish. Avtoklavlarini turlari,

tuzilishi, ishlash tartibi. Avtoklav ko'rsatkichlarini ish jarayonida ahamiyati. Mehnatni muhofaza qilish ishlarini tashkil etish. Zamonaviy sterilizatsiya apparatlari va texnika havfsizligi masalalari. Sterilizatsiyaning sifatini ta'minlovchi tadbirlar, uni tekshirish uchun zarur indikatorlar.

### **1.5. Modul. Sog'lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik**

Sog'lom turmush tarzini tashkil etish asoslari. Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda maqsadli guruhlar bilan ishlash. Atrof muhit va ekologik omillarning salomatlikka ta'siri, to'g'ri ovqatlanish prinsiplari, kun tartibini to'g'ri tashkil etish, jismoniy faollik va chiniqishning salomatlikdagi ahamiyati, zararli odatlarning organizmga ta'siri, tibbiy ko'riklarni tashkil etish va aholini jalb etish.

### **2.1. Modul. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligi gematologiya va transfuziologiya sohadagi qaror va buyruqlar, me'yoriy hujjatlar va islohotlar.**

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligi gematologiya va transfuziologiya sohadagi so'ngi qaror va buyruqlar. Transfuziologiya va immunogematologiya asoslari, uning rivojlanishida axborot texnologiyalarning o'rnini va qo'llanilishi. Respublika qon xizmati strukturasi va bajaradigan vazifalari, qon xizmati sohasidagi huquqiy me'yoriy hujjatlar. Kasbiy kommunikatsiya va shaxslararo muloqot. O'rta tibbiyot xodimlarlariga lavozim yo'riqnomalari asosida vazifalarni to'laqonli bajarishlari va qon xizmatini zamon talablari asosida tashkil etishni o'rgatish. Davolash profilaktika muassalarida qon komponentlaridan foydalanish bo'yicha hisob-kitob hujjatlarini yuritilishi. Qon xizmatida faoliyat olib boruvchi o'rta tibbiyot xodimlarini donorlar bilan ishlashdagi funksional majburiyatlari va vazifalari.

### **2.2. Modul. Qon va qon yaratish a'zolari kasalliklari bo'lgan bemorlarni zamonaviy laborator-instrumental tekshirish usullari.**

Qonning miqdori va tarkibi. Qonning fizik va kimyoviy xossalari. Qonning asosiy vazifalari. Qonning antigen va himoya funksiyasi. Eritrotsitlarning asosiy funksiyalari. Qon plazmasining tarkibi. Leykotsitlar funksiyalari. Leykotsitar formula. Leykopoez. Qon yaratish a'zolari kasalliklari bo'lgan bemorlarni tekshirishga tayyorlash va parvarish qilish xususiyatlari. Gematologik tekshirish usullari. Qon va qon yaratish a'zolari kasalliklari bo'lgan bemorlarni zamonaviy instrumental va laborator tekshirish usullari. Qon olish va unga ishlov berish, eritrotsitlarni tekshirish, normal periferiya qonini tekshirish, turli anemiyalarda periferiya qonini tekshirish.

### **2.3. Modul. O'rta tibbiyot xodimlarining gematologiya bo'limida standart hamshiralik ish jarayoni. Qon guruhlari, rezus faktorni aniqlash usullari va texnikasi.**

O'rta tibbiyot xodimlarining gematologiya bo'limida standart hamshiralik ish jarayoni. Qon guruhlari va AVO tizimi to'g'risida ma'lumot, ularning tasnifi, antigen strukturasi va ularni qon guruhlariidagi ahamiyati. Qon guruhlari

aniqlash usullari. Qon guruhining rezus omil. Rezus faktorni va qonning rezus mutanosibligini aniqlash usullari. Qon quyish texnikasi va usullari.

#### **2.4. Modul. Qon xizmatida faoliyat olib boruvchi o'rta tibbiyot xodimlarini donorlar bilan ishlashdagi funksional majburiyatlari va vazifalar.**

Donorlarni tanlab olish. Qon va plazma donatsiyasi uchun talablar. Donorlarni qabul qilish va hisobga olish, donorlarni ro'yxatga olish bo'yicha birlamchi tibbiy hujjatlarni yuritish, aktiv donorlar, rezerv donorlar va qarindosh donorlar hisobini olib borish. Donorlar to'g'risidagi ma'lumotlarni elektron bazaga kiritish va uni yuritish tartibi. Donorlarga shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha tadbirlar. Donorlarga samarali davo muolajalarini o'tkazish va hamshiralik parvarishi.

#### **2.5. Modul. Qon va uning tarkibiy qismlarini quyish. Qon preparatlarini tayyorlash prinsiplari.**

Gemotransfuziyaning organizimga tas'ri. Qon va uning komponentlarini tayyorlash jarayoni, konservalangan qon va uning komponentlariga qo'yiladigan talablar. Qon va uning tarkibiy qismlarini quyishning afzalliklari va operatsiyasiga roziligi ruxsatnomasi olish namunasini to'ldirish. Gemotransfuziyaga mutloq va nisbiy ko'rsatmalar va qo'llanilishi taqiqlangan holatlar. Gemotransfuziyani standart algoritim bo'yicha o'tkazish. Donorlik qonini sentrifugalash va birlamchi fraksiyalash. Eritrotsitar massa, yangi muzlatilgan plazma, yuvilgan eritrotsitlar, trombokonsentrat va kriopretsipitatni tayyorlash prinsiplari. Donorlik qonini konservalash usullari. Qon plazmasi preparatlarini tayyorlash. Qon komponentlarini davolash profilaktika muassasalariga tarqatishda, transportirovka qilishda, saqlashda sovuqlik zanjiri saqlanishiga qo'yilgan talablar. Qon komponentlari sterilligini bakteriologik tekshirish va qon aprobatsiyasi. Qon va uning komponentlarini pasportizatsiya qilish. Qon o'rnini bosuvchi suyuqliklarni yuborish texnikasi.

#### **2.6. Modul. Postgemotransfuzion reaksiyalar va asoratlarini oldini olish, hamshiralik parvarishini olib borish.**

Qon xizmatini zamon talablari asosida tashkil etish. Postgemotransfuzion reaksiyalar va ularning asoratlarida o'rta tibbiyot xodimlarining lavozim yo'riqnomalari asosida vazifalarni to'laqonli bajarishlari. Gemotransfuzion reaksiyalar. Sifatsiz qon quyilishi natijasida paydo bo'ladigan asoratlar. Tromboemboliya. Gemotransfuzion asoratlarda bemorlarda hamshiralik parvarishini olib borish. Mexanik asoratlar va havo emboliyasi va tronbozlarda hamshiralik parvarishini olib borish. Massiv transfuziya sindromi. Bakterial shok, gemolitik reaksiyalar, o'tkir gemoliz, anafilaktik shokda shoshilinch yordam. Posttransfuzion trombositopeniya, sabablari, belgilari. Transfuziyada yurak qon-tomir tizimi, jigar va buyraklarda kuzatiladigan asoratlar va ularda yordam ko'rsatish. Gemotransfuziya asoratida hamshiralik parvarishi.

## **2.7. Modul. Qon yaratish tizimi o'sma kasalliklari. Gemalologiyada klinik sindromlar va bemorlarga hamshiralik parvarishi.**

Qon yaratish tizimi o'sma kasalliklari leykoz, limfoleykoz, miyelom kasalliklari sabablari, klinik belgilari, asoratlari, bemorlarni zamonaviy tekshirish usullari. Anemiya. Leykoz. Gemorragik diatez kasalliklari haqida tushuncha, turlari, kelib chiqish sabablari, klinik belgilari, davosi, profilaktikasi va bemorlarda hamshiralik parvarishini olib borish. O'tkir nur kasalligi. Kechiktirib bo'lmaydigan holatlar: turli etiologiyali qon ketishlarda shoshilinch yordam ko'rsatish va hamshiralik parvarishi.

## **2.8. Modul. Gemotransmissiv infeksiyalar. Qon xizmati muassasalarida kasalxona ichi infeksiyasini tarqalishini oldini olishda hamshiralik parvarishini olib borish.**

Organizmida kasallik chaqiruvchi infeksiyon va virusli kasalliklari (OIV, virusli gepatit V, virusli gepatit S) bo'lgan bemorlar bilan ishlashda texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilish. Gemotransmissiv infeksiyalarni yuqishini oldini olish maqsadida biologik xavf omillarini aniqlash, donorlik qoni va uning komponentlarini tayyorlashda, ishlov berish jarayonida aseptika va antiseptika qoidalariga rioya qilish. Qon xizmati muassasalarida kasalxona ichi infeksiyasini tarqalishini oldini olish. Avariya holatlari va ularni oldini olish. Binoning, asbob-uskunalar va jihozlarning sanitar holatiga qo'yilgan talablar asosida ish olib borish. Tibbiy chiqindilar va ularni utilizatsiya qilishda ehtiyotlik choralarini ko'rish yo'llarini o'rganish, yuqumli kasalliklarini tarqalishini oldini olish.

## **2.9. Modul. Qon tarkibiy qisimlarini quyishda immunoserologik tekshiruvlar.**

Immunologik laboratoriyaning ish tartibi. Immunologiya usullari. Mikroskopik va serologik tekshiruvlar uchun preparatlar tayyorlash. Bakteriologik probirkaga ozuqa muhiti yuzasidan biologik materialni olish. Antigen va antitela qo'llab immun reaksiyalar o'tkazish. Immunobiologik preparatlar

## **2.10. Modul. . Favqulodda vaziyatlar va hayot uchun xavfli holatlarda birinchi yordam ko'rsatish.**

Favqulodda vaziyatlar haqida asosiy tushuncha. Favqulodda vaziyatlar, ularning sabablari, turlari. Tibbiy saralash va triaj asoslari. Shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish bosqichlari va qoidalari. Ommaviy talofatlar holatida evakuatsiya va birinchi yordam ko'rsatish tamoyillari. Qon ketishni to'xtatish usullari. Yengil va og'ir kuyishlarda tibbiy yordam ko'rsatish. Elektr jarohatlari, ochiq va yopiq jarohatlar, sinishlar, uzoq muddat ezilishda shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish. Hushdan ketish, kollaps, shok, koma haqida umumiy ma'lumot. Hushdan ketish, kollaps holatlarida bemorga yordam ko'rsatish. Shok holatlarida yordam ko'rsatish algoritmi (gipovolemik, anafilaktik, travmatik). Komatoz holatda bemorni baholash va dastlabki yordam ko'rsatish. Terminal holat bosqichlari. Klinik va biologik o'lim

belgilari. CPR – yurak-o‘pka reanimatsiyasining nazariy asoslari. Kattalar va bolalarda yurak massaji va sun‘iy nafas berishni o‘tkazish algoritmi.

#### **4.DASTURNI AMALGA OSHIRISHNING TASHKILY-PEDAGOGIK TA‘MINOTI**

**4.1. O‘quv bazalari:** Respublika o‘rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi, Shifokorlar ko‘chasi-2 , 14-uy. Davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o‘quv bazalari.

**Amaliyot bazasi:** davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o‘quv bazalari.

#### **4.2. Mashg‘ulotlarni o‘tkazish uchun zarur jihozlar ro‘yxati:**

Modul bo‘yicha dars olib borish uchun nazariy, amaliy va seminar darslar o‘tiladigan o‘quv auditoriyalari.

Multimediali jamlanma: slaydlar to‘plami bo‘lgan rrt ko‘rinishli ma‘ruzalar, SD diskda ko‘rgazma materiallar, ekran, videofilmlar.

Klinik amaliy ko‘nikmalarni mustahkamlash trening o‘kuv xonasi, mulyaj, fantom, nazorat savollarining elektron.Mavzular bo‘yicha turli jadvallar, tasviriy ko‘rgazma va qo‘llanmalar.

#### **4.3.ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

##### **4.3.1. Qonunchilik va meyoriy-huquqiy xujjatlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi “Tibbiyot va farmatsevtika ta‘limi va ilm-fani tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ- 4310-son qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 apreldagi “Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va yanada uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 4666-sonli qarori.

3. “Yuqumli bo‘lmagan kasalliklarning profilaktikasini, sog‘lom turmush tarzini qo‘llab – quvvatlash va aholining jismoniy faolligi darajasini oshirish chora - tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori PQ 40-63 18.12.2018 yil.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 11noyabr PF 4887-sonli “Aholining sog‘lom ovqatlanishi va jismoniy faolligini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi” farmoni.

5. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli “Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish buyicha meyoriy xujjatlarni yanada takomillashtirish to‘g‘risidagi” buyrug‘i.

6.O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining meyoriy hujjatlari.

##### **4.3.2. Tavsiya etilgan adabiyotlar:**

###### **Tavsiya etilgan adabiyotlar:**

1. «Shifoxona ichi infeksiyalari profilaktikasi» №0342-17. Davolash-profilaktika muassasalarida dezinfeksiya va sterilizatsiya qilish tadbirlarini tashkil etish.
2. Avtoklavlash va sterilizatsiyalashda texnika xavfsizligi bo‘yicha o‘rta tibbiyot xodimlari uchun o‘quv uslubiy qullanma. Tashkent.2009.y

3. O‘zbekiston respublikasi sanitariya qoidalari, meyorlari va gigiyenik normativlari. O‘zR SanQvaM № 0365 -19.
4. Irgashev SH.B., “Meditinskaya Valeologiya”. Toshkent- 2012
5. V.YE.Avakov O.V. Churilova A.M.Sharipov: “Rukovodstvo po okazaniyu pervoy neotlojnoy dovrachebnoy pomoshi.” 2010 g.
6. Y.Allayorov Y.Tojiboyev: “Favqulotda vaziyatlarda tez tibbiy yordam asoslari.”.
7. N.I.Stuklov, G.I.Kozinets, N.G.Tyurina. “Uchebnik po gematologii”. Moskva. Prakticheskaya meditsina. 2018 g.
8. Agzamxodjayev T.S., Xaydarov M.B., Ismailova M.U. Tolipov M.G., Babaniyazov K.K. “Klinik laborator tashxislash va tekshiruv usullari”. Toshkent – 2016.
9. Najmitdinov S.T.: Klinik gematologiya asoslari. Toshkent. Abu Ali Ibn Sino. 1998 y.

#### **4.3.3. Elektron ta’lim resurslari:**

[www.edu.uz](http://www.edu.uz)

[www.minzdrav.uz](http://www.minzdrav.uz)

<http://www.medpoisk.ru/>

<http://www.rusmedserv.com/>

[www.medi.ru](http://www.medi.ru)

[www.medlinks.ru](http://www.medlinks.ru)

[www.medscape.com](http://www.medscape.com)

[www.medland.ru](http://www.medland.ru)

[www.med-lib.ru](http://www.med-lib.ru)

## **5.YAKUNIY ATTESTATSIYA**

### **5.1.Yakuniy attestatsiyaga qo‘yiladigan talablar, o‘tkazish shakli va baholash mezonlari.**

Yakuniy attestatsiya O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2020yil 15 iyundagi 160-sonli buyrug‘i 3-ilovasidagi «Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish ta’lim muassasalarida tinglovchilarning kasbiy bilim va ko‘nikmalarini baholash to‘g‘risidagi Nizom» ga asosan o‘tkaziladi.